

OILAVIY AJIRIMLARGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA UNING SALBIY OQIBATLARI.

Xudoynazarov Sherzod Axmad o'g'li
Botirova Yorqinoy Dilshod qizi

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi guliston davlat pedagogika inistituti o'qituvchisi

Emal: sherzodxudoynazarov55555@gmail.com

Annotatsiya. *Oilaviy ajirimlar turli sabablar va xodisalar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ajirim holatlarining oldini olish va ular borasidagi ijobiy yechimni topish borasida o'zimizning kerakli maslaxat va xulosalarimizni beramiz, ajirimlarning farzandlar psixologiyasiga salbiy oqibatlarini.*

Kalit so'zlar. *Oila, psixologik muammo, nikoh, tavsiya.*

Annotation. *Family disputes can arise due to various reasons and events. We will give our necessary advice and conclusions regarding the prevention of divorce cases and finding a positive solution to them, as well as the negative consequences of divorce on children's psychology.*

Key words. *Family, psychological problem, marriage, recommendation.*

Аннотация. *Семейные споры могут возникать по разным причинам и событиям. Дадим свои необходимые советы и выводы о предупреждении бракоразводных процессов и поиске их положительного решения, негативных последствиях развода на детскую психологию.*

Ключевые слова. *Семья, психологическая проблема, брак, рекомендация,*

Kirish. *Oila jamiyatning asosiy ajiralmas bo'g'ini hisoblanadi. Insonning eng ulug' va pokiza tuyg'ulari, hissiyotlari, ma'naviyati va ma'rifatini shakillantiradigan maskan sifatida yaqindan bilamiz. Qaysiki oilada ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, oila ishonch ustiga qurilsa ajiralmas va mukammal bo'ladi.*

Jamiyatning eng og'ir davri bo'lgan sobiq sovet davrida ham oilaga e'tibor katta bo'lgan. A.Qodiriy bu davrni shunday eslaydi, shunday og'ir bir davrda ham Ko'p xotinlilik, erta va majburiy nikohlashlar e'tibor markazida bo'lgan va huquqiy choralar bilan ushbu salbiy holatlarga barham berishga erishilgan:

Bugungi kunda ham yurtimida ko'p xotinlilik, erga tegishga majburlash yoki uniing erga tegishiga to'sqinlik qilish kabi holatlar kanistitutsiyada qonun bilan himoyalangan. Jinoyat kodeksining 126-modda (ko'p xotinli bo'lish), 136-modda (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish), 128, 129-moddalar (16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish va unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish); Kabi moddalar bilan oilaviy huquqlarning mustahkamlanishiga ishonchli qadamlardan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47- modasida (nikoh Yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish) holatlarida mamuriy javobgarlikga tortiladi.³ Kabi moddalarning respublikamiz qomusiga kiritilishi ham qonun ustuvorligini taminlashning amaliy ahamiyati bo'lib xizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Asosiy qisim. Bugungi kunda hamma oilalarni ham mustahkam va sog'lom oila deb bilmaymiz. Jamiyatimizda ajirashayotgan va ajirim yoqasiga kelib qolgan oilalar afsuski juda ko'plab topiladi, shu o'rinda yurtimizda qayt etilgan ba'zi bir statistik ma'lumotlarga e'tiboringizni qaratib o'tsak. Statistika agentligining bergan ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak 2022-yilda O'zbekistonda qayd etilgan nikohdan ajralish holatlari haqida ma'lumotini taqdim qildi. Agentlik keltirayotgan raqamlar o'tgan yil bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko'rinadi.

Ya'ni, 2022-yilda O'zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman ajrashgandan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 39 227 tani tashkil qilgan. Bu esa 2022-yil uchun har ming nafar aholiga to'g'ri keladigan nikohdan ajralishlar soni – 1,4 promillega to'g'ri kelishini anglatadi. Hududlar kesimida qaraydigan bo'lsak Toshkent, Farg'ona, Andijon va Samarqand yuqori pog'onalarni qayd etgan. Albatta bunday ko'rsatgichlar rivojlanib borayotgan yosh navquron yurtimizning xalqaro Islom maydondagi nufuziga putir yetkazayotgani bugungi kunda sir emas albatta. Ajirim bu oilalardagi psixologik muhitning buzilganligidan dalolatdir, ayollarda ajirim holati bo'gandan keyin aksariyat holatlarda yolg'iz qoladi, ba'zi xolatlarda ikkinchi turmish qilishi mumkin, kimlardir esa ikkinchi turmishni xoxlashmaydi birinchi turmushdan ijobiy hislarni qabul qilmagan ayollar oila qurishni xoxlashmas ekanlar.

40 yoshdan oshgan ayollarda, o'z taqdirlarini erlariga taqdim qilishdan ko'ra, itoat qilib yashashdan yolg'iz yashashni afzal ko'radilar chunki, bu yoshda ayollarning fazandlari katta bo'lgan bo'ladi, erlariga extiyoj sezishmaydi.⁴ Hozirda yurtimizda ham oilalarga qaratilayotgan e'tibor kun mobaynida kattalashmoqda, oilaviy ajirimlar har doimo davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy tasir etib kelgan, oilaviy ajirimlarga sabab bo'ladigan iqtisodiy omillarni o'rgangan olimlardan biri G.Bekkerning 1973-yildagi tadqiqotlarida, oila va yolg'iz insonlarning daromadidagi tafovut ta'lim darajasi hamda jamiyatdagi ijtimoiy maqomi kabi jihatlarga bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Xoffman va Dunkanlarning tadqiqotlariga qaraganda, ayollarning ish bilan bandligi va daromadining ko'payishi erkak kishining daromadining kamligi ajirimlarga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlangan⁵.

Jamiyatning asosiy muommolaridan biri sifatida qaralayotgan iqtisodiy omillar oilalardagi ajirimlar, yoki oiladagi kundalik nizolarga sabab bo'lmoqda erkaklarning o'z o'rnida munosib ish topolmasliklari hamda daromadning kamligi ayollarning mehnat bozoridagi muvofiqiyatlari erkaklarning oiladagi huquqlariga ta'sir etmoqda. Ma'lumotli ayollar sonining ko'payishi ayollarni erining yordamisiz iqtisodiy jihatdan o'zlarini taminlashi ajirimlarning eng muhim belgilaridan biri bo'lib qolmoqda.⁶

³ Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nikoh_va_oila_qonun_hujjatlari.

⁴ "Ijtimoiy boshqaru" jurnalidan

⁵ "Ijtimoiy boshqaru" jurnalidan

⁶ Hatay Mustafo Kamol universiteti "Ijtimoiy va diniy tadqiqotlar" jurnali

1989- yilda K.Trent va S.Soutx kabi olimlarning ajirashishga ta'sir etuvchi aloxida omillarni tahlil qishdi, buning natijasida 66 ta mamlakatda ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi, nikoh yoshi, diniy qarashlar, er-xotin o'rtasidagi ajirashish qarorida jinslar nisbatining ahamiyatlilik darajasi aniqlandi. Albatta baxtili oila bu davlat va jamiyatning rivojiga katta xissa qo'shish bilan barobar tushnchadir. Ommaviy madaniyatda ko'pincha ajirashgan oilalarning otalari o'z farzandining jismoniy, hissiy, moliyaviy ehtiyojlariga g'amxo'rlik qilishda unchalik qiziqmaydigan "o'lik odam" sifatida tasvirlanadi. Gexard Amendtning "Men bolalarim bilan ajirashmadim!" nomli kitobida uzoq vaqtlar mobaynida kuzatilgan otaning bolalardan ajiralgandan keyingi qayg'u va yolg'izlikdagi holati yoritilgan. Amendatning ta'kidlashicha oilasi bilan ajiralishgan otalarning ko'pchiligida ajirim holatidan keyin malum muddat davomida inqiroz holatini kuzatilar ekan. Otalarning bildirgan fikirlariga qaraganda ajirim holatidan keyin o'z hayotini saqlab qolish bilan birga farzandlari bilan munosabatlarni saqlab qolishdagi harakatlar otalardagi inqiroz davrini yuzaga keltirar ekan. Olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ajirim bo'lgan oilaning farzandlari va to'liq oila farzandlarining psixologik xususiyatlari bilan taqqoslanganda ularning xususiyatlarida juda katta farqlar aniqlangan ajirashgan oilaning farzandlarida oddiy oilaviy nizolarga ham reaksiyalari haddan tashqari patologiklashtirish kuchli ekanligi harakterlanadi, bunday bolalarda agressivlik, tajavuzkorlik kuchli bo'lishiligi bilan tengdoshlaridan ajiralib turadi. Aksincha to'liq oilalarda ta'lim tarbiya olgan bolalarning individual va psixologik hususiyatlari yaxshi shakillangan va ijtimoiy muxitga moslasib ketishda unchalik katta muomolarga uchuramasligi ma'lum bo'ladi.

Ajirim holatiga tushgan bolalarning ruhiy o'zgarishlaridagi xususiyatlardan diqqatni qaratadigan yana bir tamoni shuki, aksariyat bollarda oila qurishga bo'lgan motivning pasayishi, ikkinchidan esa o'z bolalariga tajavuzning kuchyishi kabi salbiy omillarning shakillanishi bo'lsa, aksariyat bolalarda teskari motivatsiyaning vujudga kelishi bilan harakterlanadi, ota oansining ajirashgani va o'zining ko'rgan qiyinchiliklaridan to'g'ri xulosa chiqarishi ham mumkin bo'ladi ammo bunday holatlar juda kamdan – kam oilalarda uchuraydi.

Muamoli oilalarning ko'payishi ajirimlar sonining oshishi ijtimoiy hayotning tuzilish strukturasi ham o'z tasirini o'tqazmoqda xususan:

Ajralish ko'rsatkichlari tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan davlatlardan biri Ispaniyada bu ko'rsatgichlarning umumiy sonining 50% ga yaqinlashmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida, Angliya yoki Germaniyada bo'lgani kabi, bu ko'rsatkich 40% dan yuqori va 50% ga yetgan. "Journal of Family Studies" jurnalida chop etilgan tadqiqot maqolasi shuni ko'rsatadiki, ajirashgan ota-onalar bilan yashab, ular o'rtasida ko'chib yurgan chaqoloqlar va bolalarning aksariyati uzoq muddatli psixologik muomolarga duchor bo'ldi. Klinik psixolog va oilaviy terapevt Jennifer Makintosh 18 oygacha bo'lgan bolalarning 60%ida ajiralishgan ota-onalarning o'rtasida bolalarni almashinish turishi bolalarda "munosabatlardagi muomolar"ni keltirib chiqarishini tushintirib bergan.

Mutaxassisning fikricha, uzoq muddatli izlanishlardan so'ng ajirim bo'lgan oilalarning bolalarida yoshlik va voyaga yetgan davrida "qo'rqinchli darajada hissiy ichonchsizlik va kuchli his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyati past" bo'lib o'sishini aytadi.

Ajralishning jamiyatga nafaqat oilada bolalarga ta'sirini o'rganayotganda ajralishning ularning ijtimoiy psixologiyasiga ham ta'sirini e'tibordan qoldirmaslik kerak bo'ladi. Ota-onalardagi ajirim holati bolalardagi ruhiy zaiflikni keltirib chiqarishi tabiiy holat xisoblanadi.

1994- yilda psixolog Amataning ma'lumotlariga qaraganda, ota-onasining ajralishi bilan bolalarda o'zgargan hissiy omillar va ota-onalari biriga bo'lgan bolalar bilan psixologik farqlarini taqqosladi. Unga ko'ra ajirashgan oilaning bolalarida akademik samaradorlikning pasayishi isbotlangan. Eng yomoni bunday bolalar o'zini o'zi tushunmaslik, ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar, boshqalar orasidagi depressiya, qo'rquv yoki tashvish kabi hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Tomas Pikettining fikriga ko'ra ota-onasining ajirim bo'lgan holidanda havfli psixologik muommoga bolalar ota-onaning doimiy nizolari davrida duchor bo'lishligini aytadi.

Ijtimoiy kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ota-onaning er-xotinning ajralishi bolaning o'qishdagi muvaffaqiyatining pastligi bilan bog'liqdir. Bolangizning hayotdagi muvofaqqauyati bu sizning hozirgi qilayotgan amallaringizga bog'liqdir, bolalardagi hulqiy tamonlarining buzilishi, oiladagi er-xotinning ajralishi bolalarda deviant xarakterlarning shakillanishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Ota-onasi bilan ajirashgan bolalarda ular bilan ajirashgandan keyin, bolala qadrning obrosizlanishi ulardagi 3 ta salbiy sindiromni vujudga keltiradi. 1.Bola haqiqatdan shubhalana boshlaydi chunki, u o'z hislariga ishonchini yo'qatadi.

2.Bola o'z himoyasni va oziq- ovqatini yo'qatishdan qo'rqish.

3.Bolalarda otasi yoki onasi bilan ma'lum vaqt davomida ko'rishib turishi ulardagi jiddiy ruhiy zo'riqlarga olib kelishi.

Xulosa va tavsiyalar. Maqolaning yakuniy qismida nimalar deymiz kelajagi buyik, ertasidan umida bor insonlar farzandlarining baxtini ko'rishni maqsad qiling. Oilaviy farovanlik jamiyatning, kelajakning bugini, ertasining poydevori desak mubolag'a bo'lmaydi, xalqimizning ajoyib bir ibiratli jumlasiga to'xtalmoqchiman "Er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi" xa albatta bu jumlada katta ma'no mujassam oilaning tinchliligini saqlab qolishda hamjixatlikni shakillantiraolsangiz albatta oilaviy tinchlikga erishasiz, harqanday muommolarning ham yechimi ajirim bo'lavermasligi, har qanday muommoni inqiroz sifatida qabul qilmang. Shunday muommolar borki, oilalarning jipisliligiga sabab bo'lishi mumkin. Muommoning katta kichchikligi muommoning asosiy omili emas balki, shu muomoni qay darajada insonning qabul qilaolayotgani muommodir. Tinch oila jamiyat poydevoridir, azizlar hayotdagi maqsadimiz oilaviy tinchlik bo'lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nikoh_va_oila_qonun_hujjatlari.



2. “Ijtimoiy boshqaru” jurnalidan.
3. Roussel L. La Famille incertaine. Editions Odibe Jacob, 1989.
4. Natay Mustafu Kamol universiteti “Ijtimoiy va diniy tadqiqotlar” jurnali.
5. Волков А.Г. Семья – объект демографии. – Москва: Социология семьи: Учебник. – Москва: ИНФРА-М, 2009. Cairn.info saytida 30.06.2022 da chop etilgan.
6. Антонов А.И.
7. <https://doi.org/10.3917/tiers.012.0051>.